

ONLINE INTERAKTIV O'QITISH TURLARIDAN FOYDALANISH

Aytmuratov B.Sh., Kutimov I.A.

Tatu Nukus filiali

Annotatsiya

Bugungi kunda o'quv jarayonini zamonaviy o'qitish texnologiyalarisiz tashkil etish mumkin emas.

Ushbu maqolada Google Classroomning o'quv jarayonlarida foydalanishdagi imkoniyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalitso'zlar: Online ta'lim, axborot texnologiyalar, bulutli texnologiya, platforma, LMS, Google, Google Classroom, E-learning.

Abstract

Today, the educational process is based on modern teaching technologies it is impossible to organize without using it. This article provides information about the possibilities and benefits of using Google Classroom in educational processes.

Keywords: Online education, information technology, cloud technology, platform, LMS, Google, Google Classroom, E-learning.

Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida ta'lim tizimida ham turli fanlarni o'qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Axborot texnologiyalar infratuzulmani boshqarishni takomillashtirish (shu jumladan geografik jihatdan); ish boshqaruvida doimiy soddalashtirish va qulaylashtirish, tizim konsepsiyasini zaxira tarzda saqlash va virtual mashinani migratsiyalash; Axborot texnologiyalar infratuzilma chiqimini kamaytirish, xisoblash resurslarini, elektr quvvatlarini tejash haqida axborot berish, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlarni saqlash va kerak bo'lganda ulardan har qanday sharoitda foydalanish evaziga ta'lim berishning sifat darajasini oshirish mumkinligi kabi masalalarni qamrab olgan. Haytimizda bulutli texnologiyalar kirib kelmoqda. Ulardan foylanish natijasida:

Foydalanuvchilar kompyuterlardan ishlash kuchi xarakteristikalariga qaramaydi. Kompyuterlar yuqori kuchda ishlashi uchun, katta xotira va ko'p hajmli disklarga ega bo'lgan bo'lishlari shart emas. Chunki barcha ma'lumotlar va hamma dasturlar bulut serverlarida saqlanadi. Katta hajmga ega bo'lgan shaxsiy statsionar kompyuterlar, noutbuklar, netbuklar, orqali iste'molchilar bulutga kirishlari mumkin.

AT infratuzilmadan foydalanish samaradorligi oshadi va chiqimlar soni kamayadi;- Hisoblash kuchi o'sishi. Shaxsiy kompyuterlar bilan bulutli hisoblash resurslarini solishtirganda, bulutli hisoblash resurslari katta imkoniyatlarga ega;

Ma'lumotlar saqlashdagi cheklanilmagan hajmlar. Ma'lumotlarni saqlash hajmiga qarab bulutli texnologiyalar qulay va avtomatik tarzda (iste'molchi xohish istagiga qarab) joylashtiradi.

Bulutli texnologiya talim tizimiga kirib kelmoqda. Ulardan biri Google Classroom ilovasi hisoblanadi.

Google Classroom ilovasi – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi fan doirasidagi o'zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o'qituvchilar kurslar yaratishi, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarning fikr-mulohazalarini qabul qilishi mumkin.

Google Classroom – LMS sifatida ishlatiladigan dasturlardan biri sanaladi.

Google xizmatidan foydalanish va sozlash juda oson. Barcha ma'lumotlar Google xizmatlarida saqlanadi: videodarslar YouTubeda, elektron darsliklar Google Diskda, kurs ishtirokchilari Google dokumentda o'zlarining yozmaishlarini bajaradilar. Kurs yaratilib, parol kurs ishtirokchilariga tarqatilgandan so'ng onlayn faoliyat boshlanadi. Kursda e'lon, topshiriqlarni qo'shish, savollar berish mumkin (savol talabalarga bir-birlarining javoblariga izoh berish imkoniyatini berib, butun guruh tomonidan muhokama qilinishi mumkin).

GoogleClassroom

foydalanuvchiga haqiqatan ham qog'ozsiz ishlarga o'tishga, talabalar jamoasini yaxshilashga va talabalar uchun turli xil ko'rsatmalar berishga, vaqtni tejashga, qog'ozni tejashga va sinfning inverter modelini yaratishga imkon beradi.

Google Classroom o'qituvchi yoki talabalar o'quv jarayonidan tashqarida bo'lganlarida foydali vosita bo'lib, ular dars berishda davom etishlari va o'tkazib yuborilgan darslarni davom ettirishlari mumkin.

Sozlamalar oson amalga oshiriladi. O'qituvchilar kurslar tashkil qilishi, talabalar va boshqa o'qituvchilarni kurslarga taklif qilishi mumkin. Kurs davomida topshiriqlar, e'lonlar va savollarni joylashtirish juda qulay.

Talabalar topshiriqlarni lentada, kalendarda yoki "Topshiriqlar ro'yxat"da ko'rishlari mumkin. Barcha materiallar avtomatik ravishda Google drivedagi papkalarga joylashadi.

Google Classda o'qituvchilar topshiriqlarni yuklashi, e'lonlar yuborishi va muhokamaga qo'yishi mumkin. Shu o'rinda, ishtirokchilar ham o'z aro ma'lumot

almashishi, kurs lentasida izohlar qo'yishi va elektron pochta orqali muloqot qilishi mumkin. Taqdim etilgan ishlar haqida ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib boriladi, bu o'qituvchilarga topshiriqlarni tezda tekshirish, baholarni belgilash va sharhlar qo'shish imkonini beradi.

Ommapob servislar bilan integratsiya. Google Classroom Google Docs, Calendar, Gmail, Drive va Formalar bilan ishlash mumkin.


Ochiqlik va xavfsizlik. Classroom bepul xizmatdir. Unda reklama mavjud emas va talabalar uchun materiallar va ma'lumotlar marketing maqsadlarida ishlatilmaydi.

Google Classroomda sinfni sozlash

Kompyuter yok itelefoningiz brauzeridan <https://classroom.google.com/> shu link bo'yicha o'ting.

- **Google Classroom** endi **Google for Education** hisoblari bilan bir qatorda oddiy Gmail hisoblari uchun ham mavjud. Google hisobigaega harkim endi Google Classroomdan foydalanishi mumkin.

Sinfni yaratish uchun yuqori o'ngdagi "+" tugmasini bosing. (Bu sizning barcha ilovalaringizga kirish uchun foydalanadigan kvadratchali nuqtalaq to'plami belgisining yonida.)



1 rasm Kursni yaratish

Keyin "Создать курс" (1-rasm) tugmasini bosing.

Ektranda paydo bo'lgan "Создать курс" oynasida Kurs nomi kiritilib, tegishli qatorlar to'ldiriladi va "Создать" tugmasi bosiladi.


- Siz sinfingiz uchun nom qo'shishingiz kerak. Sizning o'quvchilaringiz Google

Classroomni ochganda sizning sinfingizni topishlari uchun.

- Birxil turdagi turli sinflarni ajratish uchun "Section" maydonidan foydalaning.

Ko'plab o'qituvchilar ushbu sohadan sinf davrida foydalanadilar. (Bu maydon ixtiyoriy.)

- "Subject" maydoni sizga sinf fanlari ro'yxatini tanlashga yoki o'zingiznikini yozishga imkon beradi. (Bu maydon ixtiyoriy.)[5-7]




2 rasm Fanni kiritish

Yaratilgan kurs virtual auditoriyada ochiladi.


Harbir kurs avtomatik ravishda kodoladi, unako'ra, talabalar keyinchalik o'zlarining "**virtual auditoriyalarini**" topishlari mumkin bo'ladi.

Kirish Google Classroomning mobil ilovasida ham **Android** va **iOS** uchun mavjud.



3 rasm tapshiriqlar berish

Kurs yaratilgandan so'ng unga o'quvchilarni biriktirish uchun

"**Ползователи**" bo'limiga o'tib, "**Учащиеся**"  qatoridagi belgisi

bosiladi[1-4].

Xulosa

Ota-onalarning baholarini tekshirish uchun bolangizning yelkasiga qarashning o'rniga, talabalar qo'riqchisi sifatida qo'shilishning noyob imkoniyati mavjud. Farzandingizning o'qituvchisidan sizga kirish huquqini so'rashga ishonch hosil qiling. Sizga taklifnomani qabul qilishni talab qiladigan electron xat keladi. Tasdiqlanganidan so'ng, siz kunlik yoki haftalik vasiylarning xulosalarini tanlashingiz mumkin. O'zingizning xohishingizga ko'ra, sizga yo'qolganish, kelgusi topshiriqlar va sinfdagi ishlar haqida ma'lumot olasiz. Shunday qilib, Google Classroom bizga shaffof ta'limni amalga oshirishda ko'maklashadi[8-9].

Foydalangan adabiyotlar

1. Абдрахманова Ж. Е. Методические рекомендации для работы в платформе GoogleClassroom // Нур-Султан-2019.
2. Александрова З.В. Инструкция по созданию онлайн-курса в Google Classroom // 2019.
3. Kasey Bell. The teacher's Guide to Google Classroom // Shake Up Learning, LLC 2015.
4. Баранова Н. GoogleClassroom: Как с нуля создавать онлайн курсы (версия 2020) // https://te-st.ru/entries/google_classroom/
5. Чайнокова Г.Р. Персональная образовательная среда преподавателя на платформе google classroom как средство формирования аудитивной компетенции у студентов технического ВУЗа // Cyberleninka.ru _ 2019.
6. Googleclassroom как способ организации дистанционного обучения // Материалы к вебинару «Организация дистанционного обучения на GoogleClassroom». – 23 марта, 2020 г..
7. Инструкция по работе в Google Классе // Материалы вебинара «Google Classroom – простой способ организовать дистанционное обучение». – 11 апреля, 2020 г..
8. “Google Classroom nima?” <https://uz.eyewated.com/google-classroom-nima/>
9. “Ota-onalar Google Classroom-dan bolalaringiz bilan foydalanish haqida bilishlari kerak” <https://uz.fafaq.eu>